

EPIK ASARLARDA TARIXNI YARATISH TAMOYILLARI (XURSHID
DAVRONNING “TEMURBEK VA SAROYMULKXONIM”, RISOLAT
HAYDAROVANING “UCHINCHI BASHORAT” HIKOYALARI ASOSIDA)

M.Hamrayeva

Termiz DU. f.f.n., dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20518163>

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek adabiyotining zabardast vakili Xurshid Davronning “Temurbek va Saroyulkxonim”, Risolat Haydarovaning “Uchinchi bashorat” kabi hikoyalari o'rganish asnosida mustaqillik davrida yaratilgan epik asarlar (hikoyalar)da tarixni yaratish tamoyillari tahlilga tortilgan. Ushbu hikoyalar Amir Temur va Mirzo Ulug'bek timsoli aks ettirilgan asarlar orasida badiiy jihatdan ancha baquvvat va tarix to'g'ri hamda haqqoniy aks ettirilgan asarlar sirasiga kirishi, shu bilan birgalikda, Xurshid Davron va Risolat Haydarovaning tarixiy shaxslar mavzusida samarali ijod qilib kelayotganligi, ijod mahsuli sifatida qator asarlar yozganligi, bu hikoyalarda Amir Temur va Mirzo Ulug'bek timsoli orqali tarixiy davrdagi sharoit, toj-taxt talashishlari, hamda shu bilan birgalikda, hikoya davomida umrni beiz o'tkazmaslik kerakligi, tarixiy shaxslar bilan bog'liq tarixiy haqiqatni aks ettirishga doir masalalar tahlilga tortilgani bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: tarix, tarixiy shaxs siymosi, tarixiy haqiqat, Temurbek, Bibixonim, Mirzo Ulug'bek, ko'zlar suhbat, farzand tarbiyasi va boshqalar.

O'zbek adabiyotida Xurshid Davronning “Temurbek va Saroyulkxonim” hikoyasi badiiy jihatdan ancha baquvvat va tarix to'g'ri hamda haqqoniy aks ettirilgan hikoyalar sirasiga kiradi. Ma'lumki, Xurshid Davron tarixiy mavzuda samarali ijod qilgan. Uning tarixiy mavzuda qator asarlari, jumladan, Bibixonimga bag'ishlangan “Samarqand xayoli”, Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan “Sohibqiron nabirasi”, Shayx Kubro haqida “Shahidlar shohi” kabi tarixiy-ma'rifiy qissalari e'lon qilingan. Xurshid Davron bu asarlari bilan 90-yillarda O'zbekistonda tarixiy o'tmishga bo'lgan munosabatning yanada qizg'in tus olishiga munosib hissa qo'shgan.

“Temurbek va Saroyulkxonim” hikoyasining “Ko'zlar gaplashganda...” lavhasi badiiy jihatdan ancha baquvvat va tarixning to'g'ri aks ettirilgani bilan ishontirish quvvati baland.

Asarni o'qigan kitobxon qahramonlar hayotini xuddi o'z boshidan o'tkazayotganday, hattoki, ularning dardi bilan yashashni istaydi. Hikoyada Sohibqiron Amir Temurning hozirjavobligi, yuksak ma'naviyati, go'zallikni his qila oladigan sohir qalbi butun bo'y basti bilan namoyon bo'ladi. “... Saroyulkxonim o'n olti yoshga to'lgan kuni xon qiziga munosib kuyov izlay boshlabdi. Shu maqsadda qirq bir mamlakatga chopar yuborib, shahzodalarni Zanjirsaroyga chorlabdi. Ammo kelgan shahzodalarning birini qizi yoqtirmas, boshqasini o'zi yoqtirmay, hammasini rad javobi bilan, noumid qaytaribdi.

Kunlarning birida, jasurligi va donoligi bilan mashhur navqiron Temurbek uning saroyiga kirib kelibdi. Bu tashrifdan xon behad quvonib ketibdi. U qiziga bahosi bir shahar xirojiga teng shohona liboslar kiydirib, bir viloyat xirojiga teng taqinchoqlarni taqdirib Temurbek oldiga olib chiqibdi. Temurbek qizga qarab «yo'q» degandek bosh chayqabdi. Qozonxon «Temurbekka qizim yoqmadi», -deb o'ylab, xafa bo'libdi. Lekin umid uzmad.

Qizini mamlakatning bir yillik xirojiga teng keladigan, hali ko'z ko'rmagan libosu zarzavarga o'rab, yana navqiron yigitga ro'para qilibdi.

Temurbek yana «yo'q» degandek bosh chayqabdi. Tamom esankirab qolgan Qozonxon xizmatkorlariga bor taqinchoqlarni shu erning o'ziga olib kelishni buyuribdi, o'zi bo'lsa qizi taqqan taqinchoqlarni yulib ola boshlabdi. Saroymulxonim birpasda oddiy oq ko'ylagi bilangina qolibdi. Shunda Temurbek «ma'qul!» degandek mamnun bosh iring'abdi. Qozonxon esa hayron emish. Shunda navqiron Temurbek engil bir ta'zim qilibdi-da: - Xon, go'zallikka taqinchoqlar yarashmaydi! - debdi...”

Shu o'rinda taniqli adabiyotshunos olim, professor Bahodir Karimning “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasining 2007 yil 14-sonida e'lon qilingan “Qaro ko'zlari, kamon qoshlari” maqolasidagi quyidagi fikrlarga e'tibor berish lozim deb o'ylaymiz: “...Mumtoz adabiyotda ko'z va ko'ngil juftligining bir baytda yonma-yon kelishi shu ikki moddiy va ma'naviy borliqning biri ikkinchisini to'ldirib, birining boshqasiga o'tib turishi hollarini anglatadi. Shunga monand gohida ma'lum va mashhur mumtoz shaxslar to'g'risida: «Haq subhana ul-taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratg'ondur, ammo ko'ngil ko'zin bag'oyat yorug' qilg'ondir» («Nasoyim ul-muhabbat») tarzidagi tavsiflarni o'qiymiz. Rumiyning «Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil» satri mashhur. Ayniqsa, oshiqlar e'tiroficha, yor jamolini ko'rganda ko'z ravshan tortadi, visoliga etsa ko'ngil xush bo'ladi. Alisher Navoiy: «Ko'ngluma hajringda jannat gulshani zindon erur, Ko'zima sensiz gulafshon bog' xor afshon erur», degan misralarni bitadi.

«Ko'z-ko'ngil oyinasi». Gohida ko'ngil xijilligini ko'z oshkor qiladi. Ba'zan ma'naviy tubanlik, qalb ko'rliqi ma'nisiz ko'zlarda aks etadi...”

Voqealar jarayonida adib ikki kishi o'rtasidagi oniy suhbat tasvirini yanada yorqinroq berish maqsadida ko'zlarni so'zlatadi. Temurbek va Saroymulxonim ilk uchrashuvdagi izhorlarini so'zsiz izhorlar bilan bildirishadi. Bu o'rinda adib Temurbek va Saroymulxonim obrazini aniq va tiniq tasvirlash, ularning ichki menini kitobxon ko'z o'ngida yanada yorqin aks ettirish maqsadida ko'zlar suhbatini beradi. Ko'zlar suhbatini orqali ikki dilning cheksiz muhabbati va mehrini ham ifoda etishga intiladi va so'ylashayotgan ko'zlarni ko'ngilga aylanishini istayotganini ham ushbu lavhaga singdirib yuboradi.

“...Ko'zlar gaplashganda so'zlar ojiz qoladilar. Ko'zlar gaplashganda muhabbat tilmochlik qiladi. Ko'zlar gaplashganda dunyoni sukunat bosadi. Dil dengiz bo'lsa, ko'z shu dengizning suvini yorug' dunyoga in'om etayotgan chashmadir. Ko'zlar so'zlashganda, ular dillarni ham osmonga ko'tarib uchadilar: Yerdagi dasht yovshanlari islari ham, qasrga kirish uchun navbat talashayotgan savdogarlarning janjal-suroni ham, qasr ortidagi yaylovda bir-biri bilan o'ynashayotgan arg'umoqlarning sarmast kishnashlari ham, Qozonxonning hayron nazari ham ularga begona edi. Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil...”

Xurshid Davronning “Temurbek va Saroymulxonim” hikoyasining “Oqila malika” qismida amir Qozog'onning qizi malika Bibixonimning oqila va zukkoligi xususida so'z boradi.

Hattoki, Bibixonim haqidagi tarixiy haqiqatni yanada yorqinroq aks ettirish uchun madrasadagi uchta talabalar suhbatini asosiy epizod sifatida tanlaydi. Va o'sha suhbat natijasida asarning yechimi yaxshilik bilan nihoyasiga etadi. Hikoyaning syujeti Bibixonimning madrasa hovlisiga kirib uch mullavachcha suhbatini eshitib qolishi bilan boshlanib va ertasiga ularning orzularini oqila malika qanday ijobat etgani bilan davom etadi. Garchi bu oddiy suhbat bo'lsada, xalq orasida Bibixonimning oqila malika deb tanilishiga sabab bo'lgan voqealardan biri sifatida yoritiladi. Asar yakunidagi voqea ham ibratli.

“..Tez orada saroyda bo’lib o’tgan bu g’alati voqea butun saltanatga yoyilibdi. Etti kun deganda qirq kunlik masofada turgan Amir Temur qulog’iga ham etib boribdi. Malika va uch mullavachcha haqidagi gaplarni eshitgan jahongir xotining oqilaligiga yana bir bor tahsin o’qibdi. Quvonchini yashirolmay tabaccum qilibdi - Camarqanddan chiqqandan beri Amir Temur tishini oqini ko’rmagan boyonlar bu sirning cababini bilmay boshlari qotibdi..”. Shu o’rinda Sohibqironning ayol zotini nihoyatda qadrlashi, e’zozlashiga tan bermay ilojingiz yo’q.

Shu o’rinda yozuvchi Muhammad Alining “Ulug’ saltanat” romanida Saroymulxonim timsoli aks ettirilgan o’rinlar bilan hikoyadagi Bibixonim obrazini qiyoslaydigan bo’lsak, adiblarda asosiy g’oyaviy niyat bir xil bo’lgani, farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor, ayol zotiga ehtirom aniq va yorqin bo’yoqlarda yarq etib ko’rinadi. Sohibqiron xarakteridagi farzandlar tarbiyasi bilan qiziqish, ularning taqdiriga bee’tibor bo’lmaslik holatlari, farzand dardiga sherik bo’lish xususiyati uning mehribon ota maqomiga sazovorligini tasdiqlaydi.

«...Saroymulxonim oppoq mayin qo’llari bilan uqalaganda Amir Temurning joni orom olardi, buni har ikkisi ham bilishardi. Fursatdan foydalanib mahdi ulyo ko’nglidagi gaplarini aytib olar edi.

- Oqa begi xonim bo’y etib qoldi... O’n ettiga kiradi... – Saroymulxonim Amir Temurga qaradi. - Tengini topib to’yini qilishimiz lozim. Avval ham bu haqda aytg’on erdim, hazratim...

Amir Temur katta qizining nomini eshitib quvonib ketdi. Darrov ko’z oldida ko’hlikkina, halim tabiat, yumshoq ko’ngil, tortinchoq Oqa Begi xonim namoyon bo’ldi. Jahongir Mirzoning naq o’zi, bir qorindan talashib tushgan-da. Albatta, qizining to’yini qilish darkor. Sulton Baxt begim ham o’n ikkiga kirdi...

- Amir Muso bo’lamizning Muhammadbek ismli boma’ni o’g’li bor, -Sohibqiron xayolini bo’ldi malika.-Orzumulk oqa Oqa Begi xonimga og’iz ochuvdi. O’zimizniki...

Begonamas...

- Bilamen, bilamen, Muhammadbek yaxshi yigit. Bo’langizning o’g’li, Bibi... - Amir Temur ushbu quda –andachilik Amir Musoday nufuzli beqaror amirni turfa xiyonatlardan tiyadi, degan umidda edi. - Maqbul ishdir...»

Yozuvchi hikoyada qahramonlar gardaniga qo’ygan vazifani sharaf bilan uddalagan.

Kichik janrli asarlarda tarixning har bir sahifasini kitobxon ko’z o’ngida yoritib bera olish ijodkorning mahorat darajasini belgilaydi.

O’zbek adabiyotida Risolat Haydarovanning “Uchinchi bashorat” hikoyasi Mirzo Ulug’bek obrazi to’g’ri va haqqoniy aks ettirilgan kichik nasriy asarlardan biridir. Hikoya avvali tabiat tasviri bilan yoritiladi. “...Movarounnahrda saraton issiqlari avjga chiqqan payt. Sahargi salqinlik ko’p o’tmay kunduzgi jazirama bilan almashadi. Quyosh go’yo odamzod, nabotot va hayvonot olamini o’z qudratiga yana bir bor ishontirishga qasd qilganday... Butun borliq, hatto shamol ham nafas olmay qotgan kabi...”

Voqealar rivojida adiba Mirzo Ulug’bekning donishmandligi, aqlliligi, hozirjavobligi, mushohadakorligi va xarakteridagi boshqa xislatlarni yorqin ranglarda tasvirlagan.

“...– Alouddin Ali, – dedi Mirzo Ulug’bek, – ertan oqshomga mavlono Muhammad Ardistoniyini rasadxonaga taklif etdim. Bilasen, bir muncha vaqt avval u kishi bilan bir vajdan bahs etib qolgan edik. Ali Qushchi ustozining keyingi so’zlarini kutib sukut saqladi. Chunki Mirzo Ulug’bek biron bahstalab mavzu haqida so’z ketganda o’z-o’zi bilan mushohada yuritayotgan kabi yarim ovoza so’zlar, Ali Qushchi shu odatini yaxshi ko’rardi.

– Mavlono Ardistoniy raml ilmida sohibi kamol erurlar, – deya so’zini davom ettirdi Ulug’bek, – ammo men u kishi taqdiri azal borasida bir oz mubolag’a qilurlar, deb o’ylamoqdamen. Alloh o’z bandalari ruhiga jism bag’ishlar ekan, dorilfanodagi umri uchun o’lchov hamda vazifa ham ato etgay. Bu barhaq rost. Ammo hamma hodisot faqat taqdiri azalda bitilgan bo’lsa, insonga nechun zakovat va idrok, shuur va iqtidor berilmish? Alloh insonni shu qadar suyib, unga iqtidor va iste’dod berar ekan, uni taqdir oldida ojiz etib qo’ymog’i mumkin emas! Men inson dunyoga bejiz kelmas va beiz ketmas deb bilurmen...” Hikoyadagi ushbu epizod orqali adiba kitobxonni Olloh tomonidan berilgan tiriklikning eng go’zal tuhfa ekanligini, uni bemaqsad va bemazmun o’tkazmaslik kerakligini, hayotda o’zidan ezgu nom qoldirish uchun yaxshi amallar qilishga undagani seziladi.

Voqealar jarayonida adiba tomonidan rasadxona sahnidagi qizg’in hayotning tasvirlanishi o’sha davr muhiti haqida ma’lum bir tasavvurlar uyg’onishiga sabab bo’lgan. Hikoyada Mirzo Ulug’bekning kamtarligi, samimiyligi aks ettirilgan o’rinlar ham uchraydi. “...Mirzo Ulug’bek xaloyiqni odatdagi qilar ishidan chalg’itmaslik maqsadida doimo Samarqand ko’chalaridan iloji boricha tezroq va dabdabasiz o’tib ketishga harakat qilardi. Chunki ba’zi a’yonlar har bir ko’chaga chiqishini as’asaga aylantirish, shu bahona yonida ketayotganlarini olomonga ko’rsatib olishga intilishar, bu esa g’ashini keltirar edi. Shu sabab bugun ham u shitob yurib Ko’ksaroyga keldi...”

Hikoyada Mirzo Ulug’bekning yulduzlar ilmiga bo’lgan muhabbati, butun taqdirini ular bilan bog’lashga intilishi va yulduzlar mavzusida bo’ladigan bahs va munozaralarni unuta olmasligi asnosida ilmni sevgan, haqiqiy donishmand inson qiyofasini gavdalandirilgan. “...Darhaqiqat, zamindagi hayot silsilasi yulduzlarga bog’liq. Yaratganning amri beshak-shubhadur. Ammo inson hayotida ne mazmun mavjud? Taqdiri azal bormi? Bor bo’lsa, u holda sa’yi-harakatlari boisi ne? Nahot odam bir umr yashab, nelargadur intilib, kurashib, mehnat qilib, jang qilib topgani faqat taqdiri azal bo’lsa? Agar mavlono Ardistoniy bilan bo’lgan o’sha suhbat-u, o’zining hazil iltimosi bo’lmasa, Ulug’bek balki bu haqda o’ylamas edi. Mana, oradan besh yil o’tibdi, u esa hamon o’sha voqealarni unutilmaydi...” Hikoyada voqealar rivojini kuzatar ekansiz, mavlono Muhammad Ardistoniy bilan Mirzo Ulug’bek o’rtasidagi suhbat asnosida Ulug’bek taqdirida ro’y berishi mumkin bo’lgan bashoratlar tilga olinadi. Ammo Mirzo Ulug’bek ruhiyatida paydo bo’lgan xayol ikkinchi bashoratni ro’y berishiga uni ishonmaslikka undagani ma’lum bo’ladi. Yozuvchi bashorat bilan bog’liq suhbatni yoritish asnosida Ulug’bek obrazining o’ziga xos jihatlarini ko’rsatish maqsadida ruhiy tahlildan foydalanadi. Bundan biz yuqorida bildirgan fikrimiz asosli ekanini anglaymiz.”...–Yaqin kunlarda ko’ragon hayotida ikkita noxushlik yuz bergay,–dedi nihoyat mavlono,–ko’z ochib ko’rganidin ayrilgay, sevganidin ajralgay. Birinchi voqea ikkinchisiga sabab bo’lib, oqibatda ko’ragon yolg’iz qoladur. Ulug’bek kutilmagan bashoratdan gangib qoldi. Chunki u ikki yil oldin o’lgan o’g’li Ibodulla Mirzo o’rniga o’g’il tug’ilishi kabi bashoratni kutgan, hatto mana shu kabi so’zlarni eshitsa, mavlonoga qanday taqdirlov berish to’g’risida o’ylab o’tirgan edi. Ardistoniy Ulug’bek sukutidan xavotirga tushib qoldi. –Magar ko’ragon bilvosita sababkor bo’lmasalar, balkim, ikkinchi bashorat amalga oshmas! – dedi sekin. – Ammo birinchisi beshak amalga oshadur. – Shundog’! O’rtaga sukut cho’kdi. Nihoyat Ulug’bek:

– Mayli, o’lmagan qul barini ko’radur, – deb shivirladi. Shu kuni Ali Qushchi: – Ustad, mavlononing so’zlaridan bu qadar mutaassir bo’ldingiz.

Balkim ushbu bashoratlar to'g'ri chiqmas? – dedi. – Alouddin Ali, men bunga ishonganim yo'q. Kishi o'z ko'ngli ila ajrasha oladurmi? Bu ishni oson deb bilasenmi? Yo'q!

Ikkinchi bashorat rost kelmog'i uchun menim dilimni larzaga keltiruvchi va ko'nglimni ajrashuvga da'vat etuvchi bir kuch lozim. Bundoq kuch mavjud bo'lishini aqlimga sig'dirolmasmen! Axir bu da'vatga kim jur'at eta olur? Ammo, ajab, shundoq kuch bor ekan!..”

Voqealar zanjirida malika Ugi begi Xonimning xastalanib qolishi, kasallikning kuchayib ketishi natijasida vafot etishi tasvirlangan. Shu bilan birga Mirzo Ulug'bekning ichki kechinmalari, ayolining vafoti bilan dard iztirobga ko'milgani ham tiniq lavhalarda aks ettiriladi.

Ayniqsa, yoshligida Ugi begimni ko'rgan Ulug'bekning unga Ibrohim Sulton aytgan “kelinchaklarimiz xunuk ekan, tishlari ham yo'q?” degan so'zlarni yodga olgani, so'ngra, uylangandan keyingi voqealar Ugi begi Xonimga “mendani yuzingizni o'girmang, tabassumingizni darig' tutmang, nechun Sizga tabassum darkor bo'ldi deganida, tishlaringizni ko'rmoqchiman” deb aytgan samimiy va beg'araz so'zlarini yodga olib g'amga botadi. Voqealar rivojida Ugi begi Xonimni Mirzo Ulug'bekka munosib ko'rilgani bilan bog'liq voqealar yoritiladi. Hikoyada Habiba Sulton etim qolganidan Mirzo Ulug'bekning iztiroblar ummoniga cho'kkani yorqin ranglarda tasvirlanadi.

“...Nechun g'ambodasiz, hazratim? – Oq Sulton Xon Og'o hukmdorning ikkala kiftini nozik oppoq qo'llari bilan silay boshladi. Mirzo Ulug'bek boshini ko'tarib qaradi. Malika egnidagi oppoq ipak ko'ylak ustidan kiygan kumush rang zarbof munsagi, kumush iplar bilan ziynatlangan durrasi, quloqlaridagi katta olmos ko'zli baldoqlari bilan go'yo tun avjida nurlarini yoygan to'lin oy kabi edi.

– Nechun g'amnok bo'lmay, go'zalim? – hukmdor xo'rsindi, – inson umri go'yoki yaproqqa qo'ngan shabnam emish. Yalt etarmish-u, o'charmish.

– Shundoq ekan, g'am chekmoqdan ne foyda? – malika shirin jilmaydi, – yokim O'gi begi siz uchun suyukli edimi? – Xonim, axir Habiba Sulton etim qoldi!

– Hech bokisi yo'q. O'gi Begimning qizi Gavharshodbegim huzurida. Onasi bor-yo'g'ini sezmagay ham.

Mirzo Ulug'bek uyatsizlarcha aytilgan so'zlardan lol bo'lib qoldi.- Go'zalim, sevgilim deysiz-u, kundoshim uchun g'am chekasiz! – dedi malika, chiroyli qayrilma qoshlarini chimirib. – Men bir ona bevaqt ko'z yumgani uchun qayg'urmoqdamen, bir go'dak etim qolgani uchun g'am chekmoqdamen. Bunda kundoshlik haqda ne so'z bo'lishi mumkin, xonim? – dedi Mirzo Ulug'bek bo'g'ilib. – Men esa malikangiz suymaydigan bir xotin uchun g'am chekishingizdan norizo bo'lmoqdamen, – Oq Sulton Xon Og'o “ajab bo'ldi” degandek ters burilib oldi. Va erkalab quchishlarini, shirin so'zlar aytishlarini kutib jim qoldi. Chunki avvalgi paytlari ikki o'rtada biron arazchilik bo'lsa, Oq Sulton qovoq solar, Mirzo Ulug'bek kula-kula bir-ikkita shirin so'z aytar, malika bir oz gina saqlagan bo'lib turardi-da, keyin ko'ngli erigan kabi jilmayar, va nihoyat, yarashib olishardi. Lekin bu safar hukmdor ko'ngliga go'zal malikaning arazi ham, karashmasi ham sig'madi. Malika esa bundan rostmana achchiqlandi.

Mirzo Ulug'bek shu kuni ikki o'rtada bo'lgan so'zlarni eslasa hali-hamon yuragi zirillaydi. Oq Sulton Xon Og'o – Ulug'bek sevgan Xon qizi kundoshi o'limidan shodligini behayolarcha izhor etib, hatto hukmdorga shu qadar kinoyali so'zlar aytdiki, Ulug'bek chiday olmay qoldi. O'rnidan dast turdi-da, eshikni tepib chiqib ketdi...”

Yuqoridagi lavhadan Mirzo Ulug'bekning yuksak ma'naviyatiga guvoh bo'lgan holda, farzand taqdiridan qayg'urayotgan mehribon ota timsolini tasavvur qilasiz. Hikoyada Mirzo Ulug'bekning kaniz Ruqiya bilan bog'liq uylari ishonarli va tabiiy tasvirlangan. "...Ruqiya qiz buncha uyatchan desam, sababi bor erkan-da! – o'yladi Mirzo Ulug'bek, – E, Qizgina-ya!

Ulug'bekka shaydo bo'lgan soddadil qizaloq... Bu dunyoda sevilmoq oson, ammo sevmok oson emas..." Tong otguncha o'tgan fursat yillar kabi uzaydi. Yo'q, o'zganing muhabbati ham ko'zga uyqu bermas ekan! Izhor sabab titroqqa tushmoq uchun sevmok ham shart emas ekan... Soddadil qiz oddiygina so'zlari bilan hukmdor dili qanday o'zgarishlar yasaganini xayoliga ham keltirmagandi. Mirzo Ulug'bek ko'nglida uyg'ongan qaysar bir his bilan mavlono Ardistoniy bashoratini chippakka chiqarishga ahd qilgan edi. Yo'q, dunyoda uni sevgan qiz bor ekanmi, hukmdor yolg'iz qolmagay!"

Asarda Mirzo Ulug'bek rasadxonasining qurilishi bilan bog'liq jarayon ham aks ettirilgan. Ayniqsa, ustoz-shogird munosabatlari bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Asarda tarixiy shaxsni tasvirlashda 1) u bilan bog'liq tarixiy voqea mohiyatiga kirish; 2) uning tarixdagi o'rnini ko'rsatishga harakat; 3) uning hayotidagi bir voqeani ibrat qilish kabi maqsadlarga rioya etiladi. Adiba Risolat Haydarova kichik hikoyada Mirzo Ulug'bekning Muhammad Ardistoniy ochgan fol sabab o'ychan bo'lib qolishi va ko'p mushohadaga beriluvchan bo'lib qolganini ruhiy tahlildan foydalangan holda yoritib bergan.

"...Mirzo Ulug'bek mavlono Muhammad Ardistoniy ochgan fol sabab inson umri va ijtimoiyot to'g'risida ko'p mulohaza yuritadigan bo'lib qolgan, hatto bu mavzuda risola yozishni ham ko'ngliga tukkan edi. U ijtimoiyotning inson taqdiridagi o'rni hamda hodisotlar silsilasi inson hayotida qanday o'zgarishlar yasashi, yoxud inson ijtihodi uning o'z qismatiga, qolaversa, ijtimoiyot taqdiriga qay tarzda ta'sir etmog'i borasida hamon ziddiyatli o'ylar surar, javob izlar edi.

Mirzo Ulug'bek Ali Qushchining "raml ilmida sinov ojizdur", – degan so'zi sabab miyasiga kelgan fikr ta'siridan hamon qutula olmas edi. Axir nima uchun sinovning iloji yo'q?

Axir mavlono Ardistoniy bundan besh yil avval aytgan bashorat va undan keyingi hodisalar sinov o'rniga o'tmasmi?

Mavlononing birinchi bashorati rost chiqdi. Ikkinchisini Ulug'bekning o'zi bila turib amalga oshirdi. Yana bir so'zi chin keluviga esa yo'l bermadi. Mana, yaratganga shukur, Ruqiya Sulton Xotun ikki qiz tug'ib berdi. Husn Nigor Xon Og'o Ulug'bek hurmatini baland tutib keladi. O'g'illari Abdullo Mirzo va Abdurahmon Mirzolar dilini umidlarga to'ldirib ulg'aymoqdalar. Mana, yaqinda u yana bir o'g'illik bo'ldi. Va unga Abdullatif degan ism berdi.

Bularning bari inson taqdir oldida ojiz emasligini ko'rsatmaydimi? Yo'q, alloh insonga zakovat va iqtidorni bejiz bermagan!"

Adiba Risolat Haydarova hikoyaning asosiy mohiyatini va mag'zini asar xotimasida yoritishga intilgan. Asar nomi bejizga "Uchinchi bashorat" deb nom olmaganini va tarixiy shaxs hayotida bo'ladigan tarix haqiqatini bashorat orqali ko'rsatgani aniq va tiniq lavhalarda tasvirlagan.

"...Mavlono Muhammad Ardistoniy fol ko'rmoqdan etak silkkanini keksaygani bilan izohlardi. Ammo asl sababi dilida pinhon edi.

Mavlono ikkala bashorati rost kelgach, yashirincha yana bir bor, bu safar Ulug'bekning taqdiridan raml ochdi. Va...O, bu naqadar q'o'rqinch!

Mavlono ko'z oldida ochilgan bashorat shundoq edi:– Hukmdorni suyuqli o'g'li malomatga qoldirar, shoir o'g'li qatl ettirar! Padarkush o'limidan o'n besh yil o'tib, Mirzo Ulug'bek avlodidan nishon qolmas! Mavlono qo'lidan tasbeh tushib ketdi. U sajdaga bosh qo'yar ekan, ko'zyoshlarini to'xtata olmas edi:

– O'zing rahm qil, parvardigor!“. Xulosa qilib aytganda, ushbu hikoyada yozuvchi Mirzo Ulug'bekning tarixdagi o'rni ko'rsatishga intilgan.

Istiqloq davriga kelib, o'zbek nasrida yaratilgan asarlar Mirzo Ulug'bek shaxsini o'rganishda uning murakkabliklarga to'la hayotiy faoliyati bilan tanishishda, tarixiylik mezonlariga qanchalik amal qilinganini ko'rsatishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu davr asarlarda tarixiy shaxslar obrazlari, voqea-hodisalar, makon, joy nomlari, urf-odat, milliy o'ziga xoslik kabi qator jihatlar aynan o'z holicha, ba'zan badiiy to'qima elementlaridan foydalanilgan holda ko'rsatilgan. Adiba hikoyada Amir Temurdan keyin, Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek davlatni adolat bilan boshqarganini, Samarqandni Ulug'bek er yuzida ilm-fan, madaniyati rivojlangan mamlakatga aylantirgani tarixiy manbalardan ma'lumligi to'g'risidagi faktlarga tayanib, tarixni to'g'ri yoritib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amir Temur. «Temur tuzuklari» (forschadan Alixon to'ra Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimai). - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 144 b
2. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1995. – 184 b.
3. X.Davron. Temurbek va Saroy-mulkxonim. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2011 yil, 15-son
4. R.Haydarova. Uchinchi bashorat. O'zbek nasri onlayn antologiyasi. Ziyouz.uz, 2014 yil, 9.01
5. B.Karim. Qaro ko'zlari, kamon qoshlari...O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi.2007 yil, 14-son
6. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan. 1996- 160 b.
7. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 198 b.
8. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Tarixiy roman. Birinchi kitob. Jahongir Mirzo. – Toshkent: Sharq, 2003. – 334 b.
9. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Tarixiy roman. Ikkinchi kitob. Umarshayx Mirzo. – Toshkent: Sharq, 2006. – 336 b